

THE USE OF KEYS TECHNOLOGIES IN THE STUDY OF THE TOPIC” FUNDAMENTALS OF TIME MEASUREMENT”

Dadaboeva Feruzakhon Olimzhonovna

**Associate professor of the Department of Physics and astronomy of
kokanspi,**

Muhammadjonova Khursanoy Baturjan's daughter

Student of the educational direction of kokanspi Physics and astronomy

Annotation: recommendations have been made for the use of Keys stady technology in teaching the topic” fundamentals of time measurement”.

Keywords: Keys stady technology, fundamentals of time measurement, date shift line.

Bugungi ta’limning zamonaviy tizimida har bir o’quvchiga puxta bilim berish va olgan bilimlarini mustahkamlashga ko’mak beruvchi turli xildagi texnologiyalar qo’llanilib kelinmoqda. Bu jarayonlar natijasiga ko’ra, talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki berilgan topshiriq yuzasidan mustaqil fikrlash va bilimlarni mustaqil o’zlashtirishga yo’naltirishdan iborat. Shu sababli bugungi kunda ta’lim tizimida muammoli ta’limdan foydalanish, muammoli ta’lim texnologiyalarini samarali qo’llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, so’nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o’qitishda muammoli ta’lim texnoloiyalari orasida muhim o’rin egallagan ”Keys-stady” texnologiyasini qo’llash tajribasi shakllanmoqda.

Masalan, “Vaqtning o’lchash asoslari” mavzusini o’qitishda quyidagi kabi Keys bayonlaridan foydalanish mumkin.

Magellan ismli dengizchi Yer aylanasida sayohat qilganida unga yo’ldosh bo’lgan Antoniy Pegafetaning hikoyasi quyidagicha:

«19 iyulda, chorshanba kuni biz Zelyoniy burni orollarini ko’rdik va langar tashladik... Kema jurnallarini to’g’ri yozib borganligimizni tekshirib ko’rish uchun biz qirg’oqdagi odamlardan bugun qaysi kun ekanligini

so'rashga buyurdik. Ular bizga payshanba deb javob berishdi. Bu bizni ajablantirdi, chunki bizning jurnallarimizga qaraganda bugun chorshanba bo'lishi kerak edi. Bizning hammamizning bir kunga yanglishuvimiz mumkin emasdek ko'rindi...“.

SAVOLLAR

- 1.Sizningcha sayohatchilar jurnalida xatolik bormi? Javobingizni asoslang.
- 2.Bu hikoyadagi holatni siz qanday izohlaysiz?
3. Ushbu savollarga qanday javob berish lozimligi haqida tavsiya ishlab chiqing.
4. Siz qanday fikrdasiz, dengizchilar xatolikka yo'l qo'yganmi?
5. Siz ushbu muammoni qanday hal qilgan bo'lardingiz?

TALABALARGA TAVSIYA ETILADIGAN MANBALAR.

1. M. Mamadazimov. Astronomiyadan o'qish kitobi. T. O'qituvchi 1991
- 2.Ya.I Perelman “Qiziqarli astronomiya” T.Meriyus 2009
- 3.M.Mamadazimov Sferik va amaliy astronomiyadan masalalar – T.: “O'qituvchi”, 1977

TALABALAR UCHUN KO'RSATMALAR.

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Hikoyadagi holatni izohlashga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Sizningcha dengizchilar Yerning qaysi joyida turibdi?
4. O'z fikringizni bayon eting.

KEYSNI YECHISH JARAYONI:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan tanishish orqali kichik guruhda muhokama qiladi.
2. Talaba kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda muammoni hal etishga zamin tayyorlaydigan omillarni aniqlaydi.
3. Muammoni hal etishga imkon beradigan omillardan eng muhimlarini ajratib olinadi.
4. Kichik guruh a'zolari umumiy fikr asosida eng muhim omillarni bayon etadi.
5. Kichik guruhlarning fikrlarini tahlil etadi va umumiy xulosa yasaladi.

O'QITUVCHINING YECHIMI

Bu mavjud. Bu ikki sananing chegaraviy chizig'i sananing o'zgarish chizig'i deb yuritiladi. U nolinchisi - Grinвич meridianidan 180° li burchak masofadagi meridian bilan mos keladi. Agar sayyoh bu chiziqni sharqdan g'arbga kesib o'tsa, shu zahotiy oq sanaga bir sutka qo'shib qo'yiladi, aksincha g'arbdan sharqqa kesib o'tsa, sanadan bir sutka ayriladi. Demak, astronomiya qonunlariga asosan sayyohlar hech qanday xatoga yo'l qo'yishmagan.

Xulosa qilib aytganda, ko'pgina pedagogik tajribalar natijalari fanlarni (ayniqsa, informatika, matematika, fizika, astronomiya) o'qitish jarayonida foydalanilayotgan ilg'or pedagogik yondoshuvlarni qo'llash orqali o'quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga erishish mumkinligini tasdiqlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дадабоева Ф. О., Тожиева Н. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ЯНГИЛИКЛАР БИЛАН ТАНИШТИРИШ (АСТРОНОМИЯ ФАНИ МИСОЛИДА) //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 3. – С. 609-612.
2. Dadaboyeva F., Ibragimova R. GUMANITAR YO'NALISHLI O'QUV MUASSASALARIDA ASTRONOMIYADAN SIFAT MASALALARINI YECHISH //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ. – Т. 301.
3. Olimjonovna D. F., Anvarovich R. K., Hamdamovna I. R. THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF HISTORICISM IN THE HUMANITARIZATION OF PHYSICS AND ASTRONOMY

EDUCATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. –
2022. – T. 10. – №. 12. – C. 92-95.

4. 4.Dadaboeva F. O., Rahimberdieva M., Rakhimov K. A. The importance of time aphorisms in strengthening the educational aspects of education //Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 12. – C. 21-25.